O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK:37.02

***Bobir X. SAPAROV,***
*PhD, dotsent, Podpolkovnik O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti, Toshkent, O’zbekiston*
*E-mail: b.saparov@mail.ru, https://orcid.org/0000-0002-7706-0023*

*FarDU dotsenti S.Yuldashev taqrizi asosida*

# YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA UMUMIY O‘RTA TA’LIM, O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM MUASSASALARINING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus va professional ta’lim muassasalarining o‘rni muhimligiga e‘tibor qaratiladi. Yosh avlodni jismonan va ruhan sog‘lom shakllantirish, ularning vatanparvarlik tuyg‘ularini kuchaytirish uchun ta’lim muassasalarida samarali dasturlarni amalga oshirishning ahamiyati muhokama qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** globallashuv, barkamol avlod, sport musobaqalari, O‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari, “Harakatlar strategiyasi”, salomatlik, “Umid nihollari”, Olimpiada va paralimpiya o‘yinlari.

# РОЛЬ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ, СРЕДНИХ СПЕЦИАЛЬНЫХ И ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В ПАТРИОТИЧЕСКОМ ВОСПИТАНИИ МОЛОДЁЖИ

Аннотация

В статье особое внимание уделяется важной роли общеобразовательных, средних специальных и профессиональных образовательных учреждений в воспитании молодёжи в духе патриотизма. Рассматривается значение реализации эффективных образовательных и воспитательных программ в учебных заведениях, направленных на формирование физически и духовно здорового молодого поколения, укрепление патриотических чувств, развитие гражданской ответственности и любви к Родине.

**Ключевые слова:** глобализация, гармонично развитое поколение, спортивные соревнования, средние специальные, профессиональные и высшие образовательные учреждения, «Стратегия действий», здоровье, «Умид нихоллари», Олимпийские и Паралимпийские игры.

# THE ROLE OF GENERAL SECONDARY, SECONDARY SPECIALIZED, AND VOCATIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN THE PATRIOTIC EDUCATION OF YOUTH

Annotation

This article highlights the important role of general secondary, secondary specialized, and vocational educational institutions in fostering patriotism among young people. It discusses the significance of implementing effective educational and upbringing programs in educational institutions aimed at promoting the physical and spiritual well-being of the younger generation, strengthening patriotic feelings, developing civic responsibility, and cultivating love for the homeland.

**Keywords:** globalization, well-rounded generation, sports competitions, secondary specialized, vocational and higher educational institutions, Action Strategy, health, Umid Nihollari, Olympic and Paralympic Games.

**Kirish.** Bugungi kunda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat va jamiyatning muhim vazifalaridan biridir. Ushbu jarayonda ta’lim muassasalari katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular yoshlarni jismonan va ruhan rivojlantirish, ularni ijtimoiy faol va vatanparvar shaxs sifatida shakllantirishga hissa qo‘shadi. Ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan dasturlar va loyihalar yoshlarda ruhiy va jismoniy barqarorlikni shakllantiradi, ularga kelajakda mustaqil va mas‘uliyatli shaxs bo‘lib yetishish imkonini beradi. Bunda nafaqat o‘quv jarayonlari, balki turli sport musobaqalari, madaniy tadbirlar va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiluvchi tashabbuslar ham katta rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada ana shu jarayonlarning turli jihatlari va ta’lim muassasalarining yoshlarni tarbiyalashdagi o‘ziga xos vazifalari yoritiladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish davlat siyosatining asosiga aylanib, aholining aksariyat qismini tashkil yetgan yoshlar masalalariga alohida ye’tibor berilmoqda. O‘zbekistonda 1991-yilda “Yoshlarga oid davlat siyosati asoslari to‘g‘risida” qonun qabul qilinganligi fikrimizning dalilidir. Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib chiqish to‘g‘risidagi qonunlar ijrosini ta’minlash doirasida turli loyihalar amalga oshirildi. Ushbu qonun to 2016-yil 14-sentabrgasha bo‘lgan davr mobaynida mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asosi sifatida xizmat qilib keldi. Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasiga qaratilayotgan e’tiborning yildan-yilga oshib borishi natijasida yosh avlodni milliy g‘oya asosida tarbiyalash, ulug‘ ajdodlarimizga munosib voris sifatida kamolga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Shu munosabat bilan mamlakatimizda yuksak ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Birgina misol yosh avlodni ruhan va jismonan sog‘lom qilib tarbiyalash borasida muntazam ravishda sport sohasida ta’kidlab o‘tish kerakki, dunyoning hech bir davlatida kuzatilmaydigan “Kichik olimpida” deb nom olgan uch bo‘g‘inli “Umid nihollari” (maktab o‘quvchi yoshlari o‘rtasida), “Barkamol avlod” (akademik litsey va kasb-hunar kollej texnikumlari o‘quvchi yoshlari o‘rtasida), “Universiada” (oliy o‘quv yurtlari talabalari o‘rtasida) sport musobaqalari o‘tkazilib kelinmoqda. Ushbu musobaqalarda zafar quchgan yoshlarimiz yetarlicha toblanib, jahon va olimpiada o‘yinlarida yuksak natijalar ko‘rsatib xalqaro arenalarda yurtimiz obro‘sini mustahkamlayotganligi barchamizga ma’lum. Mamlakatimiz kelajagi uchun kuchli avlodni tarbiyalash hamda voyaga yetkazishda sog‘lom turmush tarzining ahamiyati katta.

“O‘zbekiston Respublikasining 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi”da ham yoshlarga oid ustuvor yo‘nalishlar belgilab berilgan.

“Yosh avlodning ijodiy, intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga shiqarish, bolalar va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb yetish;

Jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrga yega, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga yega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni shuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish;

Yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar ushun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish;

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta’lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil yetish;

O‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari bitiruvshilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb yetish”[1].

Shu jumladan, turli dasturlar orqali Respublika iste’dodli yoshlar tanlovlari, iqtidorli talabalar ushun stipendiyalar dasturi, iqtidor yegalarining intellektual bellashuvlari, fanlar bo‘yisha olimpiadalar, konsertlar, badiiy ko‘rgazmalar, ta’lim, pedagogik yo‘nalishdagi grantlar dasturi, ko‘rik-tanlovlarning o‘tkazilishi mamlakatimiz yoshlari o‘rtasida tobora ommalashib bormoqda.

O‘zbekistonda ta’lim tizimida o‘quvchi yoshlarning jismoniy barkamolligini tarbiyalash muhim vazifalardan biridir. Bunda uzluksiz va ko‘p bosqichli sport musobaqalarini o‘tkazish yo‘li bilan yoshlarni sportga jalb qilish masalalari davlat dasturlari va hukumat qarorlari bilan huquqiy jihatdan mustahkamlangan. O‘zbekistonda ham sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash masalasiga ulug‘vor vazifalardan biri sifatida e’tibor berib kelinmoqda. Ushbu ezgu maqsadni amalga oshirish yo‘lida jismoniy tarbiyani ommalashtirish, bolalar sportini rivojlantirish, nafaqat shaharlarda, balki uzoq qishloq joylarida ham zamonaviy sport inshootlarini barpo etish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu tavsifga xalqaro standartlar asosida qurilgan ulkan sport majmualarida o‘tkazilayotgan “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va Universiada respublika musobaqalarini qo‘shimcha qilish mumkin. “Umid nihollari” respublika musobaqalarining nizomlariga asosan eng avvalo ta’limning birinchi bo‘g‘ini hisoblangan har bir umumta’lim maktabida o‘quvchilarni yalpi jalb etish bilan boshlanadi. Keyingi bo‘g‘inlari esa tuman, shahar va viloyatlar miqyosida saralash tamoyili shaklida o‘tkazilib, har bir viloyatning terma jamoasi final bosqichi – respublika sport musobaqalarini o‘tkazish bilan yakunlanadi. “Umid nihollari” sport musobaqalarining xususiyatlari va ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyati shundaki, u o‘quvchi yoshlarni kurashlarda chiniqtirish, g‘alabaga bo‘lgan qiziqish hamda ishtiyoqlarini oshirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

“Umid nihollari” sport musobaqalariga boshlang‘ich bo‘g‘inlarda tayyorgarlik masalalariga e’tibor berilsa, “Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlari haqida mulohazalar yuritish ehtiyoji tug‘iladi. Ya’ni mazkur musobaqalar va maxsus testlarning maqsad va vazifalari negizida jismoniy tayyorgarlik va jismoniy barkamollikni tarbiyalash umumlashib, bir-biriga chambarchas bog‘langan. Masalaga shu tarzda e’tibor berilsa “Umid nihollari” musobaqa dasturidagi yengil atletika, suzish, gimnastika turlari maxsus testlarda bor, ya’ni turnikda tortilish, o‘tirg‘ichda gavdani ko‘tarib-tushirish, tirsaklarni bukib-yozish va h.k. mazkur turlar bo‘yicha tayyorlanishda xizmat qilishi mumkin. Ammmo maxsus testlar bo‘yicha maqsadli, rejali musobaqalarning kam tashkil etilishi bu jarayonlarga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

E’tirof etish lozimki, “Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlari salomatlikni mustahkamlash, jismoniy tayyorgarlikni tarbiyalash va jismoniy barkamollikni ta’minlashda o‘zining tarkibiy qismi – majmuaviy turlari bilan xizmat qilishga qaratilgan. Bu esa “Umid nihollari” sport musobaqalariga tayyorlanishda doimiy ravishda qo‘llanilishi maqsadga muvofiqdir. Buning boisi shundaki, “Umid nihollari” musobaqalari va maxsus testlardagi sinov turlari hamda me’yoriy holatlari mujassam ravishda o‘quvchilarning har tomonlama barkamolligini tarbiyalash, mehnat va mudofaa ishlariga layoqatli qilib tayyorlashni shakllantirishda umum tamoyillarga mos keladi. Xulosa tariqasida aytilsa, maktab o‘quvchilarining “Umid nihollari” sport musobaqalari yoshlarni sportga safarbar etish, ularning jismoniy barkamolligini tarbiyalashda muhim bosqich tadbir hisoblanadi.

Umumta’lim maktablaridagi ommaviy sport musobaqalarini keng ko‘lamda o‘tkazish, barcha o‘quvchilarning sport turlari bilan muntazam shug‘ullanishlarini ta’minlash yo‘lida “Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlari joriy etildi. Respublika miqyosida o‘quvchilarning sportdagi tayyorgarligi va sport mahoratlarini sinov-tajribalardan o‘tkazish va eng muhimi ularning jismoniy barkamolligini tarbiyalash maqsadida ko‘p bosqichli va uzluksiz “Umid nihollari” sport o‘yinlarining o‘tkazishga asos solindi. Ta’kidlash zarurki, mazkur shart-sharoitlar va o‘tkazib borilayotgan ommaviy sog‘lomlashtirish sport tadbirlari o‘quvchi yoshlarning kundalik turmush madaniyatiga chuqur singib bormoqda. Natijada esa ertalabki gimnastika va sog‘lomlashtiruvchi mashqlar bilan shug‘ullanuvchilar soni ko‘paymoqda. Jismoniy tarbiya darslarida qiziqish bilan shug‘ullanuvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajalari o‘sib, ulardan sport to‘garaklariga qatnashuvchi va iqtidorli bolalarning sport maktablarida shug‘ullanuvchilar soni kun sayin oshib bormoqda.

**Natijalar va muhokama.** Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o‘quvchitalaba yoshlarining eng yuqori – nufuzli sport musobaqalari “Barkamol avlod” o‘yinlari hisoblanadi. Respublika – final musobaqalariga tayyorgarlik jarayonlari eng avvalo sinflar, kurslar va o‘quv muassasasida o‘tkazilib, shahar-tuman bosqichida ishtirok etish uchun terma jamoalar shakllantiriladi. Bunda har bir o‘quvchining jismoniy tayyorgarligi, sportga qiziqishi, mahorati sinovtajribalardan o‘tkaziladi. “Barkamol avlod” musobaqalari tuman-shahar va viloyat bosqichlari shaklida o‘tkazilib, har bir viloyat respublika final bosqichida ishtirok etadi.

Bugungi kunda maktab ta’lim muassasalari yosh avlodga uzluksiz ta’lim berish va uni tarbiyalash jarayonini yaxlit qamrab oladigan yagona ta’lim majmui hisoblanadi. Bunda ta’lim tizimining har bir bo‘g‘ini alohida o‘rin va mas’uliyatga egadir. Dasturni to‘liq amalga oshirish, qo‘yilgan vazifalarga erishish ana shu bo‘g‘inlarning holati va rivojlanish darajasiga, ularning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liqdir. Milliy qadriyatlarga, xalqlarning madaniyatiga va o‘zligiga bo‘lgan tahdidlar, yod g‘oyalarni singdirishga bo‘layotgan urinishlar kuchayib borayotgan globalizatsiya jarayonlari jadal rivojlanayotgan sharoitda yoshlar eng zaif qatlam bo‘lib qolayotganligi sababli bu yo‘nalishda qo‘shimcha kompleks chora-tadbirlar qabul qilinishi dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Hozirgi kunda yoshlarni tug‘ilgan va yashab kelayotgan ona zaminini sevish ardoqlash hamda harbiy vatanparvarlik tuyg‘usida tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari muhim o‘rin tutadi. Xozirgi davrda Internet manbalari va ommaviy axborot vositalari axborotlarining ijtimoiy hayotdagi o‘rni tobora mustahkamlanib, jamiyat taraqqiyotining ko‘zgusi, kishilar va yoshlar ongi, dunyoqarashi siyosiy saviyasini shakllantiruvchi asosiy omilga aylanmoqda. Ma’lumki, o‘tgan asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan Internet tarmog‘i axborot sohasida tub burilish yasadi. Endilikda an’anaviy OAV ning informatsion texnologiyalar asrida o‘z mavqeini saqlab qolishi ko‘p jihatdan global tarmoq imkoniyatlari bilan chambarchars bog‘liq bo‘lib qoldi. Bu borada yurtboshimiz alohida ta’kidlab, «…bugungi kunda milliy axborot tizimini shakllantirish jarayonida Internet va boshqa global axborot tizimlaridan keng foydalanish, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Bunga erishish XXI asrda mamlakat taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi», - deya yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanishga chaqirganlar[2]. Albatta, yosh avlod dunyoqarashini kengaytirish va bilimini oshirishda mazkur axborot manbalari muhim ahamiyatga molik. OAV va ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy jihatlarini inkor etmagan holda, uning yoshlar orasida samarasiz, salbiy ta’sirga ega bo‘lgan imkoniyati mavjudligini ham ta’kidlash lozim. Telekanallarda namoyish etilayotgan va ijaraga beriladigan hamda sotiladigan minglab video, ijtimoiy tarmoq, lazer disklari vositasida tarqatilayotgan jangari filmlarda yashash uchun kurash g‘oyasi targ‘ib etiladi.

Ularning yoshlar ongini zaharlash, milliy-ma’naviy qadriyatlarimizdan uzoqlashtirish, milliy nigilizm va manqurtlikka mubtalo qilishi o‘z-o‘zidan ayon va ochiq haqiqatdir[3]. Yoshlarda buzg‘unchi, destruktiv g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitet hali to‘la shakllanmaganligini, ularda eshitgan yoki o‘qigan ma’lumotiga juda tez ishonishini nazarda tutsak, bu ancha ye’tibor qaratish zarur bo‘lgan global muammodir. Ta’kidlash lozimki, Internetdan tarqatilayotgan qo‘poruvchilik ruhidagi axborotlar orqali ba’zan harbiy harakatlar evaziga amalga oshirib bo‘lmaydigan maqsadlarga ham erishish mumkin. Bunday axborot xurujlari esa yoshlarning ma’naviy-axloqiy, psixologik dunyoqarashini, siyosiy nuqtainazari va ye’tiqodini maqsadli ravishda o‘zgartirishga qaratilganligini unutmaslik kerak. Buning asosiy sabablaridan biri esa tajovuzkorlikni targ‘ib etuvchi tele, radio, audio, video va multimedia mahsulotlari, internetdagi ma’lumotlar, kompyuter o‘yinlarining ko‘payib borayotgani, xilma-xil usullarda tarqatilayotganidir. Ularning barchasi bolalar va yoshlarni psixik va psixoemotsional holatiga bosim o‘tkazish, ularni zimdan boshqarish axboriy-psixologik ta’sir o‘tkazishning samarali vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Ommaviy axborot vositalari orqali milliy istiqlol va vatanparvarlik g‘oyasini singdirishning yana bir muhim jihati mavjud. Bugungi kunda global axborot makonidagi qarama-qarshilik, inson, ayniqsa yosh avlodning ongi va qalbi uchun kurashning kuchayishi sharoitida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining roli va ahamiyati ortib bormoqda. Shuning uchun davlat rahbari tomonidan aholining va birinchi navbatda yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimini takomillashtirish, ularni mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoniga jalb qilish, intellektual va ijodiy salohiyatni namoyon qilishga sharoit yaratish yuzasidan ko‘rsatmalar berildi[4]. O‘zbekiston Respublikasida aholining 60 foizni yoshlar tashkil qilar ekan, shundan kelib chiqib unib o‘sib ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodni harbiy vatanparvarlik tuyg‘usi bilan tarbiyalash muhim vazifa, xozirgi kundagi murakkab ishni avvalambor oiladan boshlamoq juda ham zarur, chunki farzanga dastlabki tushunchani va tarbiyani ota-ona beradi, keyingi o‘rinlarda esa ta’lim muassasalari. Yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini yuksaltirish uchun dastlab oilada milliy qadryatlarimizni, milliy tariximizdagi buyuk sakardalar hayotini yuksak milliylik ruhida yetkazmoqlik va vatanparvar ajdodlarimiz to‘grisidagi kitoblarni qiziqarli qilib o‘qib berish kerakligi o‘zining ijobiy natijasini ko‘rsatadi. O‘quvchida vatanparvarlik tuyg‘usini tarbiyalash orqali dastlabki harbiy ofitserlik kasbiy kompetentlikni takomillashtirish borasida maktablar, litseylar va texnikumlarda bir oyda bir marotaba Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qismlarga o‘quv yekskursiyalarni tashkillashtirish zarur, keyingi o‘rinlarda o‘quvchilarni yanada qiziqtirib o‘qitish uchun yoshlarni dastlabgi harbiy chaqiriqqa tayyorlash darslariga nafaqat harbiy malakasi bo‘lgan shuningdek psixologik, pedagogik ilmi va tajribasi ega bo‘lgan kadrlarni jalb qilish zarur.

O‘zbekiston mustaqillikga erishgach, milliy kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish, ixtisoslashtirilgan litseylar o‘quv jarayonida zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha maqsadli ishlarni amalga oshirish imkoniyati tug‘ildi. So‘ngi yillarda o‘quvchi yoshlar jismoniy tayyorgarligining ahamiyatini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar bu borada katta tajriba to‘plaganligini ko‘rsatadi, u oldinga qo‘yilgan vazifalarni hal etish maqsadida o‘rnatilayotgan masalalarning umumiy hususiyatlarini aniqlashga imkon berdi. Mamlakatimizdagi milliy istiqlol g‘oyalari, ijtimoiy hayotning muhim tarkibiy qismi sifatida ta’lim-tarbiya va harbiy vatanparvarlik jarayonida foydalanish, yangilangan jamiyat manfaatlariga xizmat qilmog‘i kerak. Bu jarayon ta’lim sohasidagi davlat siyosatining huquqiy asoslarini yaratib berishdan boshlanadi.

Sportni rivojlantirish, jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini keng qaror toptirish, aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish mustaqillikning ilk kunlaridanoq davlatimiz siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi. Bugun mamlakatimiz tom ma’noda sport mamlakatiga aylandi. Yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi keng qaror topib, sportning ommaviyligi ta’minlanmoqda. O‘zbekiston sportchilari jahonning nufuzli musobaqalarida yuksak g‘alabalarni qo‘lga kiritib, mamlakatimiz sport salohiyatini butun dunyoga namoyon qilmoqda. Birgina 2024-yili Fransiyada o‘tgan Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida sportchilarimiz erishgan natijalari jahon sport jamoatchiligiga mamlakatimizni sporti jadal rivojlanayotgan davlat sifatida tanitdi. Bu bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Shuningdek, mahoratli sportchilar kasb-hunar kollejlari, ayniqsa, olimpiya zaxiralari kollejlarini bitirgandan so‘ng, bitiruvchi-sportchilarni ishga joylashishi yoki oilani moddiy tomondan ta’minlash muammosiga duch kelishi bois, endigina yuqori natijalar ko‘rsatadigan vaqtda katta sportni tashlab ketishi yoki chet davlatlariga ketib qolish holatlari eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Avvalgi yillarda topshirilgan sport inshootlarini talab darajasida saqlash, ulardan samarali foydalanish borasida nuqsonlar mavjud.

Davlatimiz rahbarining 2017-yil 15-fevraldagi «Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni sohada yuzaga kelgan kamchilik va muammolarni bartaraf etish, mamlakatimizda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish, yosh avlodni har tomonlama sog‘lom va barkamol voyaga yetkazish, xalqaro sport maydonlarida Vatanimiz sharafini munosib himoya qilishga qodir sportchilarni tarbiyalash borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishda muhim dasturilamal bo‘lmoqda.

**Xulosa.** Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish, sport klublarini tashkil etish, sport sohasidagi faoliyatni baholash tizimini yaratish, Sport turlari va sport turining tarmoqlarini e’tirof etish, ularni sport turlari reestriga kiritish hamda ushbu reestrni yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomni, Sport hakamlari va sport hakamlarining malaka toifalarini berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni, O‘zbekiston Respublikasi yagona sport tasnifi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash yuzasidan tegishli hujjatlar tayyorlash va amaldagi hujjatlarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ustida ish olib borilmoqda. Sanab o‘tilgan hujjatlar mamlakatimizda sport sohasini taraqqiy toptirishning o‘ziga xos poydevori bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz.

**ADABIYOTLAR**


1. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” 2016-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-406-sonli Qonuni. // Oliy Majlis palatalarining Axborotnomasi, 2016.№ 9.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Олий Мажлисига мурожаатномаси. -Тошкент, Халқ сўзи. 2018 йил 29 декабр
3. https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/matbuot-markazi
4. https://www.gazeta.uz/oz/2021/01/12/security-council/